

TURLI YOSH DAVRLARIDA SHAXSNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Absoatova Zuhra Eshmo`min qizi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada shaxsning turli yosh davrlarida o`zgarishi va rivojlanish, shaxsning psixologik xususiyatlari kabi tushunchalarga ta`rif berilgan. Shuningdek, turli yosh davrlarida rivojlanish jarayonining psixologiya va pedagogika uchun zarur bo`lgan xususiyatlari ajratib ko`rsatilgan. Bolaning individual rivojlanishi va yosh xususiyatlariga bog`liq o`zgarishlari keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Xulq-atvor, xarakter, biogenik nazariya, ijtimoiy status, ontogenetik qonuniyatlar, shaxslararo munosabatlar, shaxs, individuallik, yetuklik, yetilish, ontogenez, ijtimoiylashuv.*

Shaxs ma`lum ijtimoiy munosabatlar sistemasida shakllangan ijtimoiy mavjudotdir. Har bir tarixiy davrda shaxsning o`ziga xos xususiyatlari shu davrning ijtimoiy-iqtisodiy tipi va tarbiya tizimiga bog`liq holda tashkil topadi va shakllanadi. Bolaning psixik rivojlanishi masalasi yosh va pedagogik psixologiyaning asosiy muammosi hisoblanadi. Bu muammoni to`g`ri hal etish yosh va pedagogik psixologiyaning fan sifatida taraqqiy etishida ham, yosh avlodni zamon ruhida tarbiyalashda ham ahamiyati kattadir. Xulq-atvor shakllanishida tarbiyaning roli katta. Ya`ni bunda tarbiya orqali bolada turli harakatlar, xarakter ko`rinishlari, o`ziga xos munosabatlar va shaxslararo munosabatlarda o`ziga xos yondashishlar shakllanadi. Bu ularning oilada olgan tarbiyasi bilan jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar ta`sirida o`z aksini topadi. Bu bir tomondan bolaning o`z ota-onalaridan meros sifatida o`zlashtirgan sifatleri, ikkinchi tomondan, tashqi muhit ta`siri yaqqol ko`zga tashlanadi. Bu muammolar ustida izlanishlar olib borgan olimlar L.Vigotskiy, J.Piaje, S.Rubishteyn, A.Leontiv ikkala omil rolini ham inkor qilmagan holda ijtimoiy muhitning yetakchi ta`siri haqidagi fikrni baravar yoqlaganlar. Chunki to`g`ri tashkil etilgan talim shaxsning rivojlanishi, uning o`z-o`zini anglash va o`zgalarga munosabati, bilish jarayonlarini hamda intellektual taraqqiyotida katta ahamiyatga ega. Har bir odam shaxs sifatida turlicha namoyon boladi. U o`zining xarakteri, qiziqishi va qobiliyati, aqliy rivojlanganlik darajasi, ehtiyoji va mehnat faoliyatiga munosabati bilan farqlanadi. Bular shaxsning o`ziga xos xususiyatlar rivojlanib malumot bir bosqichga yetsagina mukammal, kamol topgan inson deyiladi.

Shaxsning ijtimoiy voqelikka, mehnatga, kishilarga, jamiyatga bo`lgan munosabati turlicha. Uning faollik darajasi va odoq-axloq borasidagi yetukligi turlichadir. Psixologiya fanida yosh davrlarini tabaqalash bo`yicha qator mustaqil nazariyalar mavjud. Ular inson shaxsini tadqiq qilishga har xil nuqtai nazardan yondashadi va muammoning mohiyatini turlicha yoritadi. Ularga biogenetik, sotsiogenetik, psixogenetik, kognitivistik, psixoanalitik, bixevioristik nazariyalarni kiritish mumkin. Biogenetik nazariyada insonning biologik

yetilishi bosh omil sifatida qabul qilingan, qolgan jarayonlarning rivojlanishi ixtiyoriy bo`lib, ana shu omil bilan o`zaro bog`liqdir. Mazkur nazariyaga binoan, rivojlantirishning bosh maqsadi biologik determinantlarga qaratiladi va ulardan ijtimoiy-psixologik xususiyatlar kelib chiqadi. Biogenetik qonunni F.Myuller va E.Gekkel kashf qilganligi tarixdan ma`lum. Biogenetik organning rivojlanishi nazariyasini tashviq qilishda hamda antidarvinchilarga qarshi kurashdi muayyan darajada tarixiy rol o`ynagan biroq unda organning individual va tarixiy rivojlanishi munosabati tushuntirishda qo`pol xatolarga yo`l qo`yilgan. Jumladan, biogenetik qonunga ko`ra shaxs psixologiyasining individual rivojlanishi butun insoniyatning tarixiy rivojining asosiy bosqichlarini qisqacha takrorlaydi. Nemis psixologi V.Shterinning fikricha chaqaloq hali odam hisoblanmaydi, balki faqat sutemizuvchi hayvondir; 6 oylikdan oshgach u psixik rivoji jihatidan-faqat maymunlar darajasiga tenglashadi. 2 yoshida oddiy odam holiga keladi. 5 yoshlarida ibtidoiy gala holidagi odamlar darajasiga yetadi, maktabga kirgandan boshlab, ibtidoiy davrni boshidan kechiradi, kichik maktab yoshida uning ongi o`rta asr kishilari darajasiga, nihoyat, yetuklik davridagina hozirgi zamon kishilarining madaniy darajasiga erishadi. S.Xoll rekapitulyatsiya qonunini psixologik o`shishning bosh qonuni deb hisoblaydi. Uning fikricha, ontogeniz filogenizning muhim bosqichlarini takrorlaydi. Olimning talqinicha, go`daklik hayvonlarga xos rivojlanish pallasidan boshqa narsa emas. Bolalik esa asosiy mashg`uloti ovchilik va baliqchilik bo`lgan qadimgi kishilarning davriga aynan mos keladi. 8-12 yoshlardagi o`shish davri yovvoyilikning oxiri va sivilizatsiyaning boshlanishdagi kamolotga tengdir. O`spirinlik va jinsiy yetuklikdan boshlanib, yetuklik davrigacha davom etib romantizmga barobardir. S. Xollning talqinicha, bu davrlar bo`ron va tazyiqlar, ichki va tashqi nizolardan iborat bo`lib, odamda individuallik tuyg`usi vujudga keladi. Yosh davrlarini tabaqalashning bu turi o`z navbatida tanqidiy mulohazalar manbai vazifasini o`taydi. Chunki inson zotidagi rivojlanish bosqichlari filogenezda aynan takrorlanmaydi va takrorlanishi mumkin emas.

Biogenetik konsepsiyaning boshqa bir turini nemis konstitutsion psixologiyasi namoyondalari tomonidan ishlab chiqilgan. E.Krechmer shaxs tipologiyasining negiziga bir qancha biologik omillarni (masalan, tana tuzilishining tipi va boshqalarni) kiritib, insonning jismoniy tipi bilan o`shishining xususiyati o`rtasida uzviy bog`liqlik mavjud deb taxmin qiladi. E. Krechmer odamlarni ikkita katta toifaga: sikloid (tez qo`zg`aluvchi, his tuyg`usi o`ta beqaror) va shizoid (odamovi, munosabatga qiyin kirishuvchi, his tuyg`usi cheklangan)larga ajratdi. Bu taxminini yosh davrlari xususiyatlariga ham tatbiq etib, o`smirlar sikloid xususiyatli, o`spirinlar esa shizoid xususiyatligini ta`kidlaydi. Lekin insoniyatning kamol topishida biologik shartlangan sifatlar hamisha yetakchi hal qiluvchi rol o`ynay olmaydi, chunki shaxsning individual – tipologik xususiyatlari bir-biriga aynan mos tushmaydi. Biogenetik nazariyaning namoyondalari – amerikalik psixologlar A. Gezell va S.Xoll rivojlanishning biologik modeliga tayanib ish ko`radilar. Bu jarayonda muvozanat, integratsiya va yangilanish sikllari o`zaro almashinib turadi degan xulosaga keladilar. Psixologiya tarixida biologizmning eng yaqqol ko`rinishi Zigmund Freydning shaxs talqinida o`z ifodasini topgan. Uning ta`limotiga binoan, shaxsning barcha xatti- harakatlari ongsiz

biologik mayllar yoki instinktlardan kelib chiqadi. Birinchi navbatda, jinsiy maylga bog'liqdir. Bunday biologizatorlik omillari inson xulqini belgilovchi birdan bir mezon yoki betakror turtki rolini bajara olmaydi. Biogenetik nazariyaning qarama-qarshi ko'rinishi sotsiogenetik nazariyadir. Bu nazariyada shaxsda ro'y beradigan o'zgarishlarni jamiyatning strukturali ijtimoiylashish usullari, atrofdagi odamlar o'zaro munosabat vositalari asosida tushuntiriladi. Ijtimoiylashish nazariyasiga ko'ra inson biologik tur sifatida tug'ulib, hayotdagi ijtimoiy shart-sharoitlarning bevosita ta'sir ostida shaxsga aylanadi. G'arbning eng muhim nazariyalaridan biri - rollar nazariyasidir. Bu nazariyaga ko'ra jamiyat o'zining har bir a'zosiga status deb nomlangan xatti-harakatning barqaror usullari majmuasini yaratadi. Inson ijtimoiy muhitda bajarishi shart bo'lgan maxsus rollar uning xulq-atvorida, boshqalar bilan munosabatida sezilarli iz qoldiradi. Hozirda individual tajriba va bilimlarni o'zlashtirish nazariyasi keng tarqalgan. Mazkur nazariyaga binoan, shaxsning hayoti va voqelikka munosabati, ko'nikmalarni egallashi va bilimlarni o'zlashtirishi qo'zg'atuvchining barqarorligiga bog'liq. K.Levin tavsiya qilgan fazoviy zarurat maydoni nazariyasi o'z davrida muhim ahamiyat kasb etgan. K.Levin nazariyasiga ko'ra, shaxsning xulqi psixologik kuch vazifasini o'tovchi ishtiyoq, maqsad boshqarilib turadi. Bu kuchlar fazoviy zarurat maydonining ko'lami va tayanch nuqtasiga yo'nalgan bo'ladi. Yuqorida ifodalangan har bir nazariya shaxsning ijtimoiy xulqini o'zgaralar uchun yopiq yoki maxfiy muhitning xususiyatlardan kelib chiqqan holda tushuntiradi, bunda u odam xohlashi yoki xohlamasligidan qat'iy nazar mazkur sharoitga moslashmog'i zarur degan qoidaga amal qiladi. Menimcha, barcha nazariyalarda inson hayotining ijtimoiy-tarixiy, obyektiv shart-sharoitlari mutlaqo e'tiborga olinmagan. Hozirgi psixologiyaning yirik vakili A.V.Petrovskiy inson kamolotiga, shaxsning tarkib topishiga sotsial-psixologik nuqtai nazardan yondashib, yosh davrlarining o'ziga xos tasnifini yaratdi. A.V.Petrovskiygacha psixologlar shaxsning bir tekis kamol topishini o'rgangan bo'lsalar, u shaxs shakllanishining prosotsial (ijtimoiy qoidalarga muvofiq) va asotsial (aksi ijtimoiy) bosqichlari ham bo'lishi mumkinligini isbotlab berishga harakat qiladi. Shaxsning kamol topishi uchta makrofazadan iboratligini qayd etib: birinchisi – bolalik davriga to'g'ri kelishini, unda ijtimoiy muhitga moslashish ko'nikish (adaptatsiya) ro'y berishini; ikkinchisi – o'smirlarga xos individuallashish; uchinchisi – o'spirinlikda ya'ni yetuklikka intilish davrida o'ziga xos holatlarni muvofiqlashtirish (birlashtirish) xususiyatlarini paydo bo'lishini namoyon qiladi. D.I.Feldshtsin bolaning ijtimoiy o'sishdagi jamiyatga munosabatini asosiy va oraliq munosabatlarga ajratadi. Bolada jamiyatga munosabatning shakllanishi, ijtimoiylashuv, individuallashuvning tarkibiy qismlarini egallash va bir davrdan ikkinchi davrga o'tish orqali amalga oshadi. Asosiy munosabat – insonning kamol topishida keskin siljish nuqtalari paydo bo'lishi, ichki sifat o'zgarishlari vujudga kelishi va yangi xislatlar tarkib topishining mahsulidir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, D.I.Feldshtsinning yosh davrlariga ajratish nazariyasi ontogenezdagi barcha psixologik holat va fazilatlarini ifodalash imkoniyatiga ega emas, ammo u ta'lim- tarbiyaning sifatini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan amaliy ahamiyat kasb etadi.

Umuman psixologlar tomonidan yosh davrlarini tabaqalashtirishning puxta metodologik negizga ega bo'lgan qator nazariyalari ishlab chiqilgan. Ular ontogenetik qonuniyatlarni yoritishga katta hissa bo'lib qo'shildi, amaliy va nazariy muammolarni hal qilishda qo'llanilmoqda. Shaxs xulq – atvoridagi o'zgarishlar va ularning o'ziga xos jihatlarni shakllantirishda bolaning qiziqishlariga e'tibor berish, mutaxassis va maslahatchi psixologlar hamkorligi, hamda ota-ona oila a'zolarining o'zaro munosabatlarini ta'siri bilan belgilanadi. Ayrim ota-onalar turli sabablarga ko'ra boladagi xulqni o'zgarishini va buzilishi darajasini oshirib yuboradilar, muammolarni juda og'ir va qiyin qabul qiladilar. Ba'zi bir ota-onalar psixologotibbiy – pedagogik maslahatga shifokor, pedagog yoki qarindoshlari ta'siri natijasida kelgan bo'lsalarda, o'z farzandining muammosini tan olishni istamaydilar. Bu esa bolaning shaxs sifatida namoyon bo'lishida, xulqini boshqarishida ayrim muammolarni yuzaga keltiradi. Shunda ulardagi qaysarlik, o'jarlik yoki bo'lmasa passiv xulq ko'rinishlari shakllanib qoladi. Shuning uchun boladagi ijobiy xulq-atvorni shakllantirishda, odatlarning bola faolligini taminlovchi vosita sifatida tarkib topishi uchun tarbiyani to'g'ri tashkil etish muhimdir. Pedagogik innovatsiyalar asosida faoliyatni tashkil etish individual va ijodiy xususiyatga ega. Shu bilan birga ta'lim va tarbiya jarayonini yo'lga qo'yishda yangi pedagogik texnologiyadan foydalanish xulq- atvor xususiyatlardagi ijobiy sifatlarni shakllanishiga, umumiy va emotsional namoyon bo'luvchi odatlarni rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omil bola oladi. Demak, talim-tarbiya jarayonida xulq-atvor shakllanishining dinamikasini taminlovchi omillar intellektual faoliyat usullarini yangi sharoitga ko'chirish, ular o'z-o'zini boshqarish, shaxsiy o'quv motivlarini idora qilish, ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish singari holatlarga refleksiv yondashish zamiridagina namoyon bo'ladi.

Xulosa: Turli yosh davrlarida shaxs rivojlanishida uning psixologik xususiyatlariga va rivojlanayotgan sharoitiga alohida e'tibor qaratish kerak. Ma'lumki, muayyan yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlarini bilmay turib, ularga maqsadga muvofiq ravishda ta'lim va tarbiya berib bo'lmaydi. Bolaning har bir yoshi o'z qiyinchiliklariga ega bo'ladi va o'ziga nisbatan maxsus munosabatda bo'lishni talab qiladi. Ta'lim va tarbiya jarayonida individual munosabatda bo'lishning sharti o'quvchining psixologik xususiyatlarini har tomonlama va chuqur bilishdan iborat. Bunda esa yosh davrlariga xos bo'lgan psixik dunyosidan yaxshi xabardor bo'lishni, psixologik jihatdan kuzatishni to'g'ri tashkil qila olishni va tabiiy eksprement uyushtirishni bilishni taqozo qiladi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. M.G.Davletshin, S.M.To'ychiyeva. Umumiy psixologiya, -T.:2002.
2. N.V.Bordovskaya, S.I.Rozum. Psixologiya va pedagogika, 2016.
3. R.Verderber, K.Verderber. Umumiy psixologiya, 2003.